# 2021- yil yanvar-iyul oylari uchun O‘zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

**Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, O‘zbekiston Respublikasida jami 57167,3 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 100,6 % ni tashkil etdi.**



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.




Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo‘lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo‘yicha bo‘linadi.




***Ma’lumot uchun:** qurilish ishlari hajmi bu — o‘z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta’mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.*

## 2021- yil 1- avgust holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davriga nisbatan 112,7 % ga oshib, milliy iqtisodiyot tarmoqlari orasida barqaror o‘sish sur’atlarini qayd etib kelayotgan sohalardandir.



### Iqtisodiy faoliyat turining tarkibi

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda bino va inshootlar qurish yo‘nalishi 56,9 foiz ulushni tashkil etib, o‘sish sur’ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 110,7 % ga, fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 9,9 foiz ulushni tashkil etib, (o‘sish 116,2 %), ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 33,2 foiz ulushni tashkil etib, (o‘sish 115,3 %) ga oshganligini keltirishimiz mumkin.

### Qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma’lumotlar

*2021- yil 1- avgust holatiga ko‘ra, birlikda*

**Yillar kesimida soni**




**Yillar kesimida o‘sish sur’ati**



## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug‘ullanayotgan korxona va tashkilotlar to‘g‘risida ma‘lumotlar

| | Holatiga : | | o‘tgan yilga nisbatan, *% da* |
|---|---|---|---|
| | 01.08.2020- y. | 01.08.2021- y. | |
| O‘zbekiston Respublikasi* | 39125 | 44106 | 112,7 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 2235 | 2456 | 109,9 |
| *viloyatlar:* | | | |
| Andijon | 2985 | 3321 | 111,3 |
| Buxoro | 2624 | 2878 | 109,7 |
| Jizzax | 1986 | 2132 | 107,4 |
| Qashqadaryo | 3193 | 3459 | 108,3 |
| Navoiy | 1527 | 1635 | 107,1 |
| Namangan | 2176 | 2479 | 113,9 |
| Samarqand | 2932 | 3317 | 113,1 |
| Surxondaryo | 2439 | 2763 | 113,3 |
| Sirdaryo | 1420 | 1580 | 111,3 |
| Toshkent | 3372 | 3833 | 113,7 |
| Farg‘ona | 3074 | 3507 | 114,1 |
| Xorazm | 1837 | 2025 | 110,2 |
| Toshkent sh. | 7325 | 8721 | 119,1 |

# 2021- yil 1- avgust holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da



Toshkent sh. (19,8)



Toshkent (8,7)



Farg‘ona (8,0)




Joriy yilning yanvar-iyul oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 14210,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yilning yanvar- iyul oylariga nisbatan 87,5 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2020- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan 3,9 % punktga kamayib, 24,9 % ni tashkil etdi.

## 2021- yil yanvar-iyul oylarida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

**2021- yil yanvar-iyul**

| | |
|---|---|
| **14210,5** | **24,9** |
| mlrd. so‘m | ulushi,% da |



**2020- yil yanvar-iyul**

| | |
|---|---|
| **14448,1** | **28,8** |
| mlrd. so‘m | Ulushi, % da |

*Ma’lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Toshkent shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 29,1 % i yoki 2020- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 138,0 %, Navoiy viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 21,5 % i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 86,6 %) va Qashqadaryo viloyati (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 20,0 % i yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 167,2 %)ga to‘g‘ri keldi.*

## Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

2021- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 56,6 % i to‘g‘ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyul oylari ko‘rsatkichiga nisbatan 2,2 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020- yil-ning mos davriga nisbatan 104,7 % ni tashkil etgan holda 32380,9 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.

**Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da**






*Ma’lumot uchun: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Toshkent shahri (8420,2 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 65,5 %), Toshkent viloyati (2554,9 mlrd. so‘m yoki 61,8 %), Farg‘ona viloyati (2430,0 mlrd. so‘m yoki 70,1 %) va Samarqand viloyatiga (2353,4 mlrd. so‘m yoki 62,2 %) to‘g‘ri keldi.*

## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 18,5 % ni tashkil etdi yoki 10575,9 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 110,0 % ni tashkil etdi.




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 2297,2 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 54870,1 mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda 4,0 % va 96,0 % ni tashkil etdi.



# Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari 2021- yil yanvar- iyul oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | Ulushi, % da | mlrd. so‘m | Ulushi, % da |
| O‘zbekiston Respublikasi* | 57167,3 | 2297,2 | 4,0 | 54870,1 | 96,0 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 2577,6 | 168,1 | 6,5 | 2409,5 | 93,5 |
| *viloyatlar:* | | | | | |
| Andijon | 2913,2 | 91,8 | 3,2 | 2821,4 | 96,8 |
| Buxoro | 3979,1 | 209,5 | 5,3 | 3769,6 | 94,7 |
| Jizzax | 1606,1 | 38,6 | 2,4 | 1567,5 | 97,6 |
| Qashqadaryo | 3346,1 | 128,0 | 3,8 | 3218,1 | 96,2 |
| Navoiy | 2599,9 | 441,2 | 17,0 | 2158,7 | 83,0 |
| Namangan | 2865,8 | 115,5 | 4,0 | 2750,3 | 96,0 |
| Samarqand | 3726,6 | 119,5 | 3,2 | 3607,1 | 96,8 |
| Surxondaryo | 3057,8 | 21,0 | 0,7 | 3036,8 | 99,3 |
| Sirdaryo | 1561,7 | 161,5 | 10,3 | 1400,2 | 89,7 |
| Toshkent | 4549,3 | 153,2 | 3,4 | 4396,1 | 96,6 |
| Farg‘ona | 3614,5 | 92,9 | 2,6 | 3521,6 | 97,4 |
| Xorazm | 2035,4 | 104,4 | 5,1 | 1931,0 | 94,9 |
| Toshkent sh. | 13700,3 | 452,0 | 3,3 | 13248,3 | 96,7 |

* Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

## Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2021- yil yanvar-iyul oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **70,2 %** i yoki 40156,2 mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan 12152,4 mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **30,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan 18772,8 mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **46,7 %** ni tashkil etdi.

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 9231,0 mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **23,0 %** ni tashkil etdi.

*Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.*

# Hududlar kesimida qurilish ishlari
# 2021- yil yanvar-iyul oylarida

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd. so‘m) | O‘sish sur’ati, % da | Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya va qayta qurollantirish (mlrd. so‘m) |
|---|---|---|---|
| O‘zbekiston Respublikasi * | 57167,3 | 100,6 | 40156,2 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 2577,6 | 110,0 | 1848,2 |
| *viloyatlar:* | | | |
| Andijon | 2913,2 | 107,2 | 1778,7 |
| Buxoro | 3979,1 | 106,7 | 2275,4 |
| Jizzax | 1606,1 | 104,2 | 1336,7 |
| Qashqadaryo | 3346,1 | 111,3 | 2257,8 |
| Navoiy | 2599,9 | 106,1 | 1962,4 |
| Namangan | 2865,8 | 106,3 | 2080,5 |
| Samarqand | 3726,6 | 110,0 | 2674,0 |
| Surxondaryo | 3057,8 | 106,1 | 2420,3 |
| Sirdaryo | 1561,7 | 112,0 | 938,0 |
| Toshkent | 4549,3 | 115,5 | 2366,2 |
| Farg‘ona | 3614,5 | 108,2 | 2232,4 |
| Xorazm | 2035,4 | 111,1 | 1604,5 |
| Toshkent sh. | 13700,3 | 118,0 | 9347,2 |

* Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

# Respublikada iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari



*Ulushi, % da*

| | 2020- yil yanvar-iyul | 2021- yil yanvar-iyul |
|---|---|---|
| Bino va inshootlarni qurish | 75,2 | 70,2 |
| Fuqarolik obyektlarini qurish | 15,1 | 18,1 |
| Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari | 9,7 | 11,7 |

*Ma’lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

## Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 23,7 % ni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,4 % punktga ka‘maydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan 0,4 % punktga ko‘payib, 50,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2020- yilning yanvar-iyul oylaridagi ko‘rsatkichga nisbatan 4,0 % punktga ko‘payib, 26,3 % ni tashkil etdi.





***Ulushi, % da***



## Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 35,8 % ni tashkil etdi va 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 2,2 % punktga kamaydi.

Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 64,1% (2,2 % punktga ko‘payish) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,1 % ni tashkil etdi.



***ulushi, % da***



## Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 5,1 % punktga kamaydi va 14,9 % ni tashkil etdi. Qolgan 85,1 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2020- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 5,1 % punktga ko‘paydi.



## Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha hududlar kesimida qurilish ishlari 2021- yil yanvar-iyul oylarida

*mlrd. so‘m*

| | Qurilish ishlari hajmi | shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Bino va inshootlarni qurish | Fuqarolik obyektlarini qurish | Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari |
| O‘zbekiston Respublikasi* | 57167,3 | 40127,1 | 10353,7 | 6686,5 |
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 2577,6 | 1747,8 | 501,9 | 327,9 |
| *viloyatlar:* | | | | |
| Andijon | 2913,2 | 2174,5 | 471,6 | 267,1 |
| Buxoro | 3979,1 | 2784,2 | 560,0 | 634,9 |
| Jizzax | 1606,1 | 1330,9 | 182,8 | 92,4 |
| Qashqadaryo | 3346,1 | 2517,8 | 519,6 | 308,7 |
| Navoiy | 2599,9 | 1989,5 | 363,7 | 246,7 |
| Namangan | 2865,8 | 2026,1 | 218,9 | 620,8 |
| Samarqand | 3726,6 | 1575,0 | 2050,7 | 100,9 |
| Surxondaryo | 3057,8 | 2205,9 | 650,6 | 201,4 |
| Sirdaryo | 1561,7 | 1025,0 | 437,9 | 98,8 |
| Toshkent | 4549,3 | 3196,0 | 680,4 | 672,9 |
| Farg‘ona | 3614,5 | 2911,0 | 366,7 | 336,8 |
| Xorazm | 2035,4 | 1446,0 | 381,5 | 207,9 |
| Toshkent sh. | 13700,3 | 8163,6 | 2967,4 | 2569,3 |

*Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi





**ulushi, % da**

- 67,8 — Bino va inshootlarni qurish
- 19,5 — Fuqarolik obyektlarini qurish
- 12,7 — Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

- 6,5 — Davlat mulki
- 93,5 — Nodavlat mulk



## Andijon viloyati





**ulushi, % da**

- 74,6 — Bino va inshootlarni qurish
- 16,2 — Fuqarolik obyektlarini qurish
- 9,2 — Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

- 3,2 — Davlat mulki
- 96,8 — Nodavlat mulk



## Buxoro viloyati



ulushi, % da

Bino va inshootlarni qurish




Fuqarolik obyektlarini qurish

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari




## Jizzax viloyati



ulushi, % da



Bino va inshootlarni qurish




Fuqarolik obyektlarini qurish

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



## Qashqadaryo viloyati



**ulushi, % da**







## Navoiy viloyati



**ulushi, % da**









## Namangan viloyati






## Samarqand viloyati



## Surxondaryo viloyati



ulushi, % da

- Bino va inshootlarni qurish — 72,1
- Fuqarolik obyektlarini qurish — 21,3
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari — 6,6

Davlat mulki — 0,7

Nodavlat mulk — 99,3

## Sirdaryo viloyati



ulushi, % da

- Bino va inshootlarni qurish — 65,6
- Fuqarolik obyektlarini qurish — 28,1
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari — 6,3

Davlat mulki — 10,3

Nodavlat mulk — 89,7



## Toshkent viloyati






ulushi, % da




## Farg‘ona viloyati






ulushi, % da






## Xorazm viloyati



**ulushi, % da**







## Toshkent shahri




**ulushi, % da**








**Investitsiyalar va qurilish statistikasi boshqarmasi**
**Tel.: 71 202-80-56**

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda: binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 56,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,7 foizga oshgan; fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,9 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 116,2 foizga oshgan; ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 33,2 foiz ulushni va 115,3 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi